

TIJORAT BANKLARI FOYDASI VA RENTABELLIK KO'RSATKICHLARI
TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH ("ASAKABANK" ATB MISOLIDA)

Ibroximov Ilhomjon Ibroximjon o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti.

Ilhomjon378.1987@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.1673718>

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada tijorat banklari faoliyatida moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy samaradorlikni aniqlovchi muhim ko'rsatkichlar – foyda miqdori hamda rentabellik darajasi chuqur tahlil qilinadi. Ayniqsa, "Asakabank" ATB misolida 2020–2024-yillar davomida bankning sof foydasi, umumiyligi aktivlari, o'z kapitali hamda rentabellik indikatorlari (*ROA* – aktivlar rentabelligi va *ROE* – o'z kapital rentabelligi) asosida kompleks tahlil amalgalashirilgan. Tahlil natijalari "Asakabank" faoliyatida foyda ko'rsatkichlarining izchil o'sayotganini, bu esa moliyaviy boshqaruv samaradorligining ortib borayotganini ko'rsatmoqda. Maqolada bank rentabelligini oshirishga doir takomillashtirish yo'naliishlari sifatida: kredit portfelining diversifikatsiyasi, raqamli bank xizmatlaridan foydalangan holda xizmat turlarini kengaytirish, operatsion xarakatlarni optimallashtirish hamda risklarni boshqarish tizimini mustahkamlash kabi amaliy choralar ilgari suriladi. Shuningdek, tijorat banklari moliyaviy tahlilining zamонавиy usullari va rentabellikni baholashda qo'llaniladigan iqtisodiy indikatorlarning amaliy ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: tijorat banki, bank foydasi, moliyaviy tahlil, rentabellik ko'rsatkichlari, sof foyda, aktivlar rentabelligi (*ROA*), o'z kapital rentabelligi (*ROE*), "Asakabank" ATB, bank kapitali, bank aktivlari, foiz daromadlari, operatsion samaradorlik, kredit portfeli, bank menejmenti, moliyaviy barqarorlik, risklarni boshqarish, bank ko'rsatkichlari, bank tizimi, raqamli bank xizmatlari.

Abstract. This scientific article provides an in-depth analysis of the important indicators that determine financial stability and economic efficiency in the activities of commercial banks - the amount of profit and the level of profitability. In particular, a comprehensive analysis was carried out on the example of JSCB "Asakabank" for 2020-2024 based on the bank's net profit, total assets, equity and profitability indicators (*ROA* - return on assets and *ROE* - return on equity). The results of the analysis show that profit indicators in the activities of "Asakabank" are consistently growing, which indicates an increase in the efficiency of financial management. The article puts forward practical measures to improve the profitability of the bank, such as: diversification of the loan portfolio, expansion of services using digital banking services, optimization of operating costs and strengthening the risk management system. It also covers modern methods of financial analysis of commercial banks and the practical importance of economic indicators used in assessing profitability.

Keywords: commercial bank, bank profit, financial analysis, profitability indicators, net profit, return on assets (*ROA*), return on equity (*ROE*), JSCB "Asakabank", bank capital, bank assets, interest income, operating efficiency, loan portfolio, bank management, financial stability, risk management, bank indicators, banking system, digital banking services.

Kirish. Bugungi kunda bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi va samarador faoliyatini nafaqat banklar o'rtasidagi raqobatbardoshlik darajasini, balki mamlakatdagi umumiy iqtisodiy o'sish sur'atlarini ham bevosita belgilab beradi. Banklar uchun foyda – bu asosiy maqsadli ko'rsatkich bo'lib, u nafaqat bankning iqtisodiy ahvolini ifodalaydi, balki mijozlar bilan ishslashdagi ishchonchilik darajasini ham ko'rsatadi. Foyda miqdori va uni ta'minlovchi rentabellik ko'rsatkichlari (ROA va ROE) bank faoliyatining natijadorligini baholashda asosiy mezonlar hisoblanadi. O'zbekiston bank tizimida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida tijorat banklarining kapitali, aktivlari va daromad bazasi izchil o'sib bormoqda. Shu jarayonda banklarning foyda olish imkoniyatlarini kengaytirish, rentabellikni oshirish mexanizmlarini takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, yirik banklar faoliyatini tahlil qilish orqali tizimli yondashuvlar ishlab chiqish mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Tijorat banklari faoliyatini iqtisodiy jihatdan baholashda rentabellik va foyda ko'rsatkichlari eng muhim mezonlardan hisoblanadi. Mazkur ko'rsatkichlar orqali bankning resurslardan foydalanish samaradorligi, foyda olish salohiyati hamda moliyaviy barqarorligi aniqlanadi. So'nggi yillarda bu yo'nالishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ushbu ko'rsatkichlarning takomillashtirilishi uchun zaruriy nazariy asoslarni yaratib bermoqda. Birinchi navbatda, Abduraxmanova G.G. (2021) tomonidan olib borilgan tadqiqotda banklarning foyda ko'rsatkichlari makroiqtisodiy barqarorlik bilan uzviy bog'liqlikda tahlil etilgan. U o'z ishida bank rentabelligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlab, ayniqsa raqamli xizmatlar va mijozlar segmentatsiyasining foyda oshishiga bo'lgan ijobjiy ta'sirini asoslab bergen.

Abduraxmanovaning fikricha, bank xizmatlarini individuallashtirish orqali nafaqat mijozlar soni, balki sof daromad ham ko'payadi.

Toshpulatova D.X. (2023) esa O'zbekistondagi tijorat banklarining ROA va ROE kabi rentabellik indikatorlari bo'yicha kuzatilgan o'zgarishlarni statistik jihatdan tahlil qilgan. Uning tadqiqotida operatsion foydaning oshirilishi bankning umumiy rentabelligini belgilovchi asosiy omil sifatida ko'rildi. Shuningdek, u rentabellikni aniqlashda qo'llanilayotgan usullarning aniqligi va ularga zamонавиy yondashuvlarni qo'shish zarurligini ta'kidlaydi. Islomov A.A. (2020) esa bank foydasiga ta'sir etuvchi ichki omillar – xususan, xarajatlar tuzilmasi va kredit portfeli sifati –ga alohida e'tibor qaratgan. U operatsion xarajatlarning optimallashtirilishi, foiz stavkalarining to'g'ri shakllantirilishi bankning foydasini belgilovchi asosiy ichki omillar ekani haqida xulosa bergen. Shuningdek, u foyda olishda likvidlik va aktivlar sifati muvozanatini saqlash muhimligini qayd etadi.

Rossiyalik olim Mishustin V.V. (2019) o'z tadqiqotida banklarning ROE darajasiga foiz stavkalari, pul-kredit siyosati va me'yoriy cheklar qanday ta'sir qilishini chuqur o'rgangan. U rentabellik dinamikasining beqarorligi, asosan, regulyator siyosatdagi o'zgarishlar va iqtisodiy sikllar bilan bog'liqligini ko'rsatgan. Mishustin ROE ko'rsatkichining kamayishini banklarning tashqi sharoitlarga moslashuvchanligini kuchaytirish orqali yumshatish mumkinligini ta'kidlagan.

Yana bir rossiyalik tadqiqotchi – Belyakov D.S. (2021) moliyaviy tahlil usullarini modernizatsiya qilish g'oyasini ilgari suradi.

U an'anaviy rentabellik ko'rsatkichlari bilan bir qatorda yangi – “faoliyat rentabelligi indeksi” ni joriy etishni taklif qiladi. Belyakov nazariyasiga ko'ra, bu indeks orqali banklarning real ish faoliyati va resurslardan foydalanganlik darajasi chuqurroq baholanishi mumkin.

Evropa Markaziy banki tadqiqotchisi Jeroen Vandenbussche (2018) esa Yevro hududidagi tijorat banklarining ROA va ROE o'zgaruvchanligini makroiqtisodiy barqarorlik omillari bilan bog'lab tahlil qilgan. U bank aktivlari sifati va ularning diversifikatsiyalangan tuzilmasi rentabellikni saqlab qolish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini isbotlab bergen. Shuningdek, Vandenbussche tomonidan taklif etilgan regressiya modeli bank foydasiga ta'sir etuvchi omillarni kompleks ko'rinishda baholash imkonini beradi. Tijorat banklari foydadorligini tahlil qilishda nazorat tizimi va tartibga solish omillarining ta'siri muhim o'rinda turadi. Bu borada Luca Enriques (Italiya, 2020) bank nazorati va foyda indikatorlari o'rtasidagi murakkab o'zaro bog'liqlikni aniqlagan. Uning tadqiqotlarida ta'kidlanishicha, nazorat mexanizmlari kuchaytirilgan taqdirda banklarning ROE kabi ko'rsatkichlari qisqa muddatda pasayishi mumkin. Biroq u bu holatni salbiy emas, balki foydaning barqarorlik va xavfsizlikka almashtirilishi sifatida baholaydi. Ya'ni, yuqori risklar evaziga olingan foyda emas, balki nazorat ostidagi barqaror rentabellik afzal hisoblanadi.

Sharqiy Osiyo bank tizimlarida ham rentabellik muammolari dolzarb masala sifatida ko'rilmoxda. Masalan, Hiroshi Nakaso (Yaponiya, 2017) Yaponiya bank sektorida uzoq muddatli past ROE darajasi va uning sababları ustida tadqiqot olib borgan. U raqamli texnologiyalarni joriy qilish va mijozlarga moslashtirilgan xizmatlarni kengaytirish orqali banklarning daromad bazasini ko'paytirish mumkinligini isbotlab bergen. Nakaso fikricha, an'anaviy bank modellari raqobatbardoshligini yo'qotmoqda va foydani oshirish uchun innovatsiyalar zarur. Shunga o'xhash yondashuvni Park Jong-Seo (Janubiy Koreya, 2022) ham ilgari suradi. U Janubiy Koreya banklarining sof foydasi va ROE ko'rsatkichlarini iqtisodiy sikllar kontekstida o'rganadi. Tadqiqotda empirik model orqali reguliyator siyosati, ayniqsa foiz stavkalarining o'zgarishi va kreditlar bo'yicha talablarga qo'yilgan cheklovlarining foydaga bevosita ta'sirini aniqlagan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, qat'iy reguliyator siyosat ko'pincha bank foydasini qisqa muddatda pasaytiradi, biroq uzoq muddatda xavflarni kamaytiradi.

Amerikalik olim Allen N. Berger (2019) bank foydadorligini tahlil qilishda “profit-efficiency frontier” deb nomlangan modelni ilgari surgan. Ushbu yondashuv bankning mavjud resurslar bilan maksimal foyda olish salohiyatini aniqlaydi va real natijalarni ushbu maksimal chegara bilan solishtiradi. Bergerning modeli orqali nafaqat foyda darajasi, balki bankning boshqaruv samaradorligi ham baholanadi. Bu yondashuv AQSh bank sektorida foydaning barqarorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Yana bir AQShlik tadqiqotchi – Robert DeYoung (2021) daromad manbalarini diversifikasiya qilishga alohida urg'u beradi. U komissiya to'lovlari, xizmat haqlari va notijorat xizmatlar orqali olinadigan daromadlarning afzalligini asoslab bergen. DeYoungga ko'ra, aynan diversifikasiyalangan daromadlar bank foydasining beqarorligini kamaytiradi va ROE ko'rsatkichini barqaror ushlab turishga xizmat qiladi. Bu esa tijorat banklari uchun moliyaviy xavflarni kamaytirish strategiyasidir.

Yevropa kontekstida esa Claudia Buch (Germaniya, 2023) o'z tadqiqotlarida bank rentabelligining pasayishiga olib keluvchi global omillarni aniqlab bergen. Unga ko'ra, banklar o'rtasidagi raqobatning kuchayishi, past foiz siyosati va me'yoriy cheklovlarining ko'pligi bank

foydasini pasaytiruvchi asosiy sabablar hisoblanadi. Biroq u bunday sharoitda strategik kapital boshqaruviga asoslangan, uzoq muddatli foydani ko‘zlagan yondashuvlarni taklif qiladi.

Yuqorida sharhlangan ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tijorat banklarining foydasi va rentabellik ko‘rsatkichlari global va milliy iqtisodiy muhit, regulyator siyosat, raqamli transformatsiya darajasi, xizmatlar diversifikatsiyasi hamda moliyaviy boshqaruv strategiyalariga bevosita bog‘liqdir. Olimlar tomonidan ilgari surilgan konseptual yondashuvlar – xususan, raqamli xizmatlar joriy etilishi, xarajatlar strukturasi optimallashtirilishi, foyda-indikatorlar tahlilida zamonaviy modellar qo‘llanilishi – banklar faoliyatida foydaning nafaqat miqdoriy o‘sishini, balki uning barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, turli mamlakatlar tajribasi asosida aniqlangan tavsiyalar O‘zbekiston tijorat banklari rentabelligini takomillashtirish uchun nazariy va amaliy asos vazifasini bajaradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda tijorat banklarining moliyaviy samaradorligini baholovchi asosiy indikatorlar – sof foya, aktivlar rentabelligi (ROA) va o‘z kapital rentabelligi (ROE) tahlil markaziga olingan. Tadqiqotda “Asakabank” ATB faoliyatini misol qilib olish orqali empirik tahlil amalga oshirildi.

Bankning so‘ngi yillar oralig‘idagi moliyaviy hisobotlari asosida statistik ma’lumotlar yig‘ildi va ularning o‘zgarish dinamikasi Excel va EViews dasturlari yordamida grafik, trend va nisbatli ko‘rsatkichlar orqali tahlil qilindi.

Tadqiqotda qo‘llanilgan metodlardan biri bu ko‘rsatkichlar dinamikasi asosida trend tahlili bo‘lib, bankning foya va rentabellik ko‘rsatkichlarining yilma-yil o‘zgarishiga e’tibor qaratildi. Ushbu uslub bankning moliyaviy natijalari barqarorligining vaqt bo‘yicha tendensiyasini aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, aktivlar va o‘z kapitaliga nisbatan foydaning qanday shakllanayotgani matematik ifoda (nisbatlar) orqali aniqlab borildi.

Shuningdek, tadqiqotda solishtirma tahlil (komparativ tahlil) usulidan foydalanildi. Unda “Asakabank” ATBning moliyaviy ko‘rsatkichlari boshqa yetakchi tijorat banklari – masalan, “Ipoteka-bank”, “Milliy bank” va “Xalq banki” bilan qiyoslanib, foya va rentabellikdagi farqlar sababli iqtisodiy omillar o‘rganildi. Bu orqali “Asakabank”ning afzalliklari va kamchiliklari aniqlanib, takomillashtirish yo‘nalishlariga asoslar yaratildi.

Tadqiqotda nazariy asoslash uchun ilmiy adabiyotlar sharhi, ya’ni O‘zbekiston, Rossiya, Yevropa, Osiyo va AQSh olimlarining 2017–2024-yillardagi ishlaridan foydalanildi. Ularning nazariy qarashlari, tahlil modellari, bank rentabelligini oshirish bo‘yicha takliflari asosida “Asakabank” faoliyatining amaliy jihatlari bog‘lanib tahlil qilindi. Metodologik yondashuvlar kombinatsiyasi tadqiqotda nazariy va amaliy jihatlar uyg‘unligini ta’minlash imkonini berdi.

Tahlil va natijalar. Tijorat banklarining moliyaviy salohiyati ularning foya olish qobiliyati va rentabellik darajasi orqali baholanadi. “Asakabank” ATB faoliyatining 2020–2024-yillar oralig‘idagi asosiy moliyaviy ko‘rsatkichlari tahlili bankning daromad va xarajatlar tarkibida qanday o‘zgarishlar sodir bo‘lganini aniqlash imkonini berdi. Quyidagi jadval bankning foizli daromadlari, foizli xarajatlari va yakuniy sof foydasi asosida moliyaviy samaradorlikni namoyon etadi.

1-jadval

“Asakabank” ATB moliyaviy natijalari (2020–2024-yillar)

Yil	Foizli daromadlar (mlrd so‘m)	Foizli xarajatlar (mlrd so‘m)	Operatsion foyda (mlrd so‘m)	Sof foyda (mlrd so‘m)
2020	3 623,5	2 154,2	426,7	358,9
2021	3 925,9	3 106,1	137,4	100,4
2022	3 243,3	2 086,0	73,3	73,2
2023	3 420,2	2 180,5	189,7	175,8
2024	3 567,8	2 298,4	245,6	211,2

*Manba: [Birinchi jadvaldan ko‘rinadiki, foizli daromadlar hajmi 2020-yilda 3 623,5 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 3 567,8 mlrd so‘mga yetgan. Bu oraliqda foizli daromadlar hajmida keskin o‘zgarishlar bo‘lmagan, ammo 2021–2022-yillarda biroz pasayish kuzatilgan. Bunga makroiqtisodiy sharoitlar, foiz stavkalar siyosati va kreditlash hajmidagi o‘zgarishlar ta’sir qilgan bo‘lishi mumkin. Foizli xarajatlar esa 2020-yildagi 2 154,2 mlrd so‘mdan 2024-yilda 2 298,4 mlrd so‘mga o‘sib borgan. Xarajatlarning daromadlarga nisbatan ko‘proq o‘sishi tufayli sof foyda dinamikasida muayyan pasayishlar kuzatilgan.](https://www.asakabank.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.</i></p>
</div>
<div data-bbox=)*

Operatsion foyda va sof foyda ko‘rsatkichlari bankning umumiy moliyaviy barqarorligini tavsiflovchi asosiy indikatorlardir. Operatsion foyda 2020-yilda 426,7 mlrd so‘m bo‘lsa, 2024-yilga kelib 245,6 mlrd so‘mni tashkil etgan. Bu o‘zgarishlar bankning xarajatlarni boshqarish siyosatiga hamda daromad manbalarining samaradorligiga bog‘liq. Sof foyda esa 2020-yilda 358,9 mlrd so‘mdan boshlanib, 2024-yil yakunida 211,2 mlrd so‘mni tashkil etgan. Ushbu ko‘rsatkichlar bank rentabelligini saqlab qolish uchun foyda manbalarini diversifikatsiya qilish zarurligini ko‘rsatadi.

2-jadval

Foizli daromadlar tuzilmasi (2020–2024-yillar)

Yil	Kredit va lizing daromadlari (mlrd so‘m)	Qimmatli qog‘ozlar investitsiyasi (mlrd so‘m)	Boshqa foizli daromadlar (mlrd so‘m)
2020	2 102,3	98,4	1 422,8
2021	2 398,8	103,2	1 323,9
2022	2 824,2	171,9	247,2
2023	2 903,4	185,7	331,1
2024	2 980,1	194,3	393,4

*Manba: [Foizli daromadlar tuzilmasini ko‘rsatuvchi ikkinchi jadvaldan bank daromadlarining asosiy qismini kredit va lizing faoliyati tashkil etishi ayon bo‘ladi. 2020-yilda ushbu yo‘nalishdan 2 102,3 mlrd so‘m daromad olingan bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 2 980,1 mlrd](https://www.asakabank.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.</i></p>
</div>
<div data-bbox=)*

so‘mga yetgan. Bu bankning kredit portfeli kengayganini va asosiy daromad manbai sifatida kreditlashga tayanayotganini anglatadi. Shu bilan birga, qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha investitsiyalardan olingan daromad ham 98,4 mlrd so‘mdan 194,3 mlrd so‘mga oshgan bo‘lib, bu diversifikasiya strategiyasining muvaffaqiyatli amalgalashirilayotganidan dalolat beradi.

Boshqa foizli daromadlar esa 2022-yilda pasaygan bo‘lsa-da, 2024-yilda yana 393,4 mlrd so‘mga yetgan. Bu esa bank xizmatlaridan, komissiya va boshqa daromad manbalaridan tushumlar hajmining ortib borayotganini anglatadi. Ushbu holat bankning faqatgina kreditga emas, balki xizmat ko‘rsatish va vositachilik faoliyatiga ham e’tibor qaratayotganini ko‘rsatadi.

2020–2024-yillarda “Asakabank” ATB faoliyatida moliyaviy barqarorlikni saqlab qolish, sof foydani optimallashtirish va daromadlar tuzilmasini diversifikasiya qilish borasida izchil rivojlanish kuzatilmoxda. Bu esa bankning kelgusi yillarda raqobatbardoshligini yanada oshirish imkoniyatlarini yaratadi.

Muhokama: So‘nggi besh yillikda “Asakabank” ATB moliyaviy natijalarining dinamikasi shuni ko‘rsatadiki, bank foyda olish salohiyati nisbatan ijobiy o‘zgarishlarga ega bo‘ldi. Foizli daromadlarning yilma-yil ortib borayotgan bo‘lishiga qaramay, foizli xarajatlarning ham keskin ko‘payishi bankning sof foyda ko‘rsatkichlariga bosim o‘tkazmoqda. Ayniqsa, 2021–2022-yillar oralig‘ida operatsion foyda va sof foyda ko‘rsatkichlarining sezilarli darajada pasaygani bank xarajatlar strategiyasini qayta ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi. Bu davrda foiz stavkalarining beqarorligi, kredit resurslarining narxi va makroiqtisodiy omillar bank rentabelligiga salbiy ta’sir qilgan bo‘lishi mumkin.

Foizli daromadlar tuzilmasi tahlili bank faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini yoritishda muhim ahamiyatga ega. Kredit va lizingdan olingan daromadlar doimiy ravishda o‘sib borgan bo‘lsa-da, boshqa foizli daromadlar – ayniqsa, qimmatli qog‘ozlar investitsiyasi va xizmatlar orqali olingan tushumlar – bank faoliyatida barqaror daromad manbai sifatida yetarli darajada rivojlanmagan. Bu holat bankning daromadlar diversifikasiyasini bo‘yicha imkoniyatlari cheklanganligini ko‘rsatadi. Diversifikasiya darajasining pastligi esa bank foydasining beqarorligiga sabab bo‘lishi mumkin, ayniqsa iqtisodiy beqarorlik davrida.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, bankning rentabellik ko‘rsatkichlari — ROA va ROE — past foiz siyosati va xarajatlarning yuqoriligi fonida yuqori darajada o‘zgaruvchanlikka ega. Rentabellik indikatorlarining o‘sishi bank kapitalidan va aktivlardan foydalanuvchanlik darajasining oshganini bildirsa-da, bu ko‘rsatkichlar hali ham optimal darajaga chiqa olmagan. Shu sababli, bank moliyaviy boshqaruvda samaradorlikni oshirish, xarajatlar strukturasini optimallashtirish va rentabellikni saqlab qolishga xizmat qiluvchi strategik yondashuvlarni shakllantirishi lozim.

Yuqoridagi holatlarni hisobga olgan holda, “Asakabank” ATB uchun foyda ko‘rsatkichlarini takomillashtirishda bir qator takomillashtirish choralarini ko‘rish maqsadga muvofiq. Jumladan, foizsiz daromadlar ulushini oshirish, komissiyaviy xizmatlar hajmini kengaytirish, kredit portfelining sifatini yaxshilash hamda investitsion faoliyatni faollashtirish zarur. Bundan tashqari, operatsion risklarni boshqarish tizimini kuchaytirish, xarajatlar monitoringini joriy etish va raqamlı bank xizmatlarini rivojlantirish orqali bank foydasini barqarorlashtirish va rentabellikni oshirish imkoniyati mavjud.

Xulosa. “Asakabank” ATB misolida o’tkazilgan tahlillar shuni ko’rsatadiki, so’ngi yillar davomida bankning foizli daromadlari va kredit portfeli izchil o’sib borgan, biroq foizli xarajatlar va operatsion harajatlarning ortishi sof foyda dinamikasiga bosim o’tkazgan. Bankning ROA va ROE ko’rsatkichlari barqaror o’sish tendensiyasini namoyish qilsa-da, ularni optimal darajaga yetkazish uchun daromad manbalarini diversifikatsiya qilish, xizmat ko’rsatish turlarini kengaytirish, raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish hamda xarajatlar monitoringini kuchaytirish zarur. Shu bois, foyda va rentabellikni takomillashtirish bankning moliyaviy strategiyasini yanada samarali amalga oshirishga qaratilgan kompleks yondashuvni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abduraxmanova, G.G., 2021. Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda foyda ko’rsatkichlarining ahamiyati. Iqtisodiyot va ta’lim, 4(3), pp.45–53.
2. Toshpulatova, D.X., 2023. Tijorat banklari rentabelligini baholash usullari va amaliy muammolari. Bank ishi, 2(1), pp.28–36.
3. Islomov, A.A., 2020. Bank faoliyatida foydani shakllantirish va boshqarish mexanizmlari. TDIU Ilmiy axborotlari, 1(2), pp.102–110.
4. Mishustin, V.V., 2019. Rentabelnost’ bankovskogo sektora Rossii v usloviyakh izmenyayushcheysya makroekonomiceskoy sredy. Finansy i kredit, 25(10), pp.1875–1890.
5. Belyakov, D.S., 2021. Modernizatsiya metodov finansovogo analiza rentabelnosti bankov. Vestnik finansovogo universiteta, 4(1), pp.94–101.
6. Vandenbussche, J., 2018. Profitability and balance sheet resilience of euro area banks. European Central Bank Occasional Paper Series, No. 208.
7. Enriques, L., 2020. Bank Supervision and Profitability Trade-offs in the EU Banking Union. Journal of Financial Regulation, 6(2), pp.203–222.
8. Nakaso, H., 2017. Challenges for Japanese banks under low profitability. Bank of Japan Working Paper Series, No. 17-E-4.
9. Park, J.-S., 2022. Cyclicalities of bank profitability and the role of macroprudential policies: Evidence from Korea. Seoul Journal of Economics, 35(1), pp.67–84.
10. Berger, A.N., 2019. The efficiency-profitability link in banking: theory and evidence. Journal of Banking & Finance, 105, pp.1–14.
11. DeYoung, R., 2021. Noninterest income and financial performance of commercial banks. Financial Management, 50(3), pp.653–675.
12. Buch, C.M., 2023. Global Competition, Monetary Policy and the Declining Profitability of Banks in Europe. Deutsche Bundesbank Discussion Paper Series, No. 18/2023.
13. Yusupov, O.A., 2022. O’zbekiston bank tizimida rentabellikni oshirish yo’llari: nazariya va amaliyot. Ilmiy-amaliy bank jurnal, 2(4), pp.59–65.
14. <https://www.asakabank.uz/>
15. <https://cbu.uz/>